

## **OLIV TA'LIM MUASSASALARDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH MUAMMOSINING KASBIY, TASHKILY-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

**O.O'.O'rinova**

*Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrasida katta o'qituvchisi*

Dunyoda bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish, keng profilli mutaxassislar tayyorlash, talabalarning kreativligi, kasbiy kompetentligi, tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish alohida ahamiyatga molik. SHu jihatdan universitetlar miqyosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash jarayonlarni zamonaviy texnologiyalar asosida loyihalashtirish, innovatsion kasbiy-ta'limiy dasturlar samaradorligini oshirish, metodikasini takomillashtirish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq qilish zarurati izohlanadi.

Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda keng raqobat muhitini shakllantirish, "pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish" qo'shimcha kvalifikatsiyalar berishning innovatsion yo'nalishlarini oliy ta'limga tatbiq etish, uning milliy zaminini mustahkamlash sohasida universitetlarning ko'p darajali tarkibida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini kimyo ta'limi jarayonida innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik ta'limning rivojlanishi tendensiyalari va pedagogik faoliyatga tayyorlash sohasida amalga oshirilgan ishlar tahlili jamiyatning ijtimoiy, madaniy va boshqa jihatlardagi zamonaviy holati pedagogik faoliyatni tashkil etish borasida yangicha yondashuvlarni talab etishidan dalolat bermoqda. "O'qituvchining hozirgi davrdagi mehnati avvalombor maktab o'quvchisiga u yoki bu fanga doir dasturda belgilangan bilim va ko'nikmalar majmumini etkazib berish bilan cheklanmasdan u bilan o'zaro hamkorlik faoliyati jarayonida uning shaxsini rivojlantirish va tarbiyalashga qaratilgan bo'lmog'i lozim". Pedagogik ta'limning istiqboldagi rivojlanish yo'li qizg'in ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Faqat birgina holatga nisbatan shak-shubha yo'qki, oliy ta'lim, umuman olganda pedagogik ta'lim yangilanishining muhim ustuvor yo'nalishi uning shaxsning individual talab va ehtiyojlariga yo'naltirilganligi, ma'naviy va ijodiy fazilatlarini rivojlantirish, o'quv hamda kasbiy faoliyati davomida o'zini namoyon qila olishga tayyorlashdan iboratdir.

Pedagogik tayyorgarlik deganda an'anaviy talabalarning pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bilim va ko'nikmalarni elementar tarzda o'zlashtirishlari tushunilar edi. O'qituvchi tomonidan beriladigan saboq mazmuniga qo'yilayotgan yangicha talab va vazifalarga muvofiq ravishda bunday yondashuv mazmunini kengaytirish va "pedagogik tayyorgarlik" tushunchasiga kengroq ta'rif berish zarurati yuzaga kelmoqda.

Oliy kasbiy ta'limning innovatsion yo'nalishi hisoblangan universitetlarda qo'shimcha pedagogik kasbiy faoliyatga yo'naltirish jarayoni shubhasiz talabalarni pedagogik tayyorlashga doir ilmiy tadqiqotlarga tayanadi. Birgina tadqiqot ishimiz mazmuniga doir ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili va bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligining hozirgi amaliyoti bizning mazkur ilmiy ishimizda asoslashga urinayotgan uning ayrim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Chunki, - "hozirgi rivojlanib borayotgan globallashuv davrida yangi g'oya, innovatsiyasiz raqobatbardoshlikni ta'minlash mushkuldir.

Universitetlar bitiruvchilarining asosiy qismi oliy kasbiy ta'limning asosiy ta'lim dasturi bo'yicha o'qitish davrida "O'qituvchi" va "Oliy maktab o'qituvchisi" qo'shimcha pedagogik malakani egallashga etaklovchi qo'shimcha ta'lim dasturlaridan birini o'zlashtirish imkoni berilmoqda.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy tamoyillaridan biri bu hamkorlikda echiladigan ikkita masala hisoblanadi: "pedagogik faoliyatni (kasbiy pedagogik tayyorgarlik) amalga oshirishga bo'lgan tayyorgarlikni ta'minlovchi psixologik-pedagogik fanlar majmuini chuqur o'zlashtirish hamda o'quv fanlariga aylantirilgan mazkur fanni qabul qilish usullarini tizimlashtirish". Pedagogik tayyorgarlik pedagogik faoliyatning negizi hisoblangan kasbiy va fan (predmet) elementlaridan iboratdir.

"Pedagogik faoliyatning maqsadi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, jamiyat tomonidan belgilanadi, va asosan yosh avlod shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu faoliyat, avlodlarning o'zaro ijtimoiy bog'liq aloqalarini amalga oshirishga yoshlarni tayyorlash, insonning tabiiy imkoniyatlaridan jamiyat tajribalarini egallashda foydalanishdan iborat"

Oliy maktabda kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirishning pedagogik, ilmiy-tadqiqot, boshqaruv, metodik, madaniy-ma'rifiy, loyihalash; psixologik-pedagogik, ilmiy-pedagogik, tashkiliy-pedagogik; kasbiy (asosiy mutaxassislik bo'yicha) tarkibiy qismlari haqida so'z yuritadi.

Bir qator tadqiqot ishlarida faoliyat modeli haqida so'z yuritiladi va ularda zamonaviy talablarga muvofiq ravishda o'qituvchi salohiyati darajasiga oid faoliyat to'qqizta yo'nalishga bo'lingan: o'rgatuvchi, mobil-yo'naltiruvchi, rivojlantiruvchi, kommunikativ, tashkiliy, konstruktiv, tadqiqotchilik, texnik, tadbirkorlik.

Faoliyat – tabiiy va ijtimoiy faoliyatni maqsadli o'zgartirish orqali ifodalanidigan faollikning insoniy shakli.

Pedagogik faoliyat – faoliyat turlaridan biri bo'lib, o'quvchilarni maqsadli rivojlantirish, ularning madaniyat negizlarini egallashlari hamda qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish orqali ifodalanadi.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlashda malaka amaliyotlari muhim o'rin egallaydi. Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlari o'tkaziladi: o'quv (tanishuv) amaliyoti - iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar

bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi; kimyoviy fan amaliyoti (ishlab chiqarish amaliyoti) - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi; bitiruv oldi amaliyoti - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonada, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi; pedagogik amaliyot - talabalarning pedagogik kasbiy yo'naltirishlari uchun qo'llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2010. –127 b.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
3. Iskandarov A. Kimyodan masalalar echish metodikasi. Darslik. Toshkent, 2018 y.–59 b.